

# RAQS OLAMI

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi nashri

Gazeta 2020-yildan chiqa boshlagan.

MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA

2021-yil / Dekabr

2021-YIL — YOSHLARNI QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH YILI

Muhtaram hamkasblar, qadrli talabalar! Betakror diyorimizga yangi — 2022-yil kirib kelmoqda. Akademiyamizda sohani rivojlantirishga o'z hissasini qo'shayotgan ustozlarni, professor-o'qituvchilarimiz va navqiron yoshlarimizni ushbu go'zal ayyom bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Yangi 2022-yil barchamiz uchun omadli kelsin. Oilaviy baxt, sog'lik-salomatlik barchamizga hamroh bo'lsin. Ertangi kunga ishonch, bugungi kundan mamnunlik hissi bilan yashash baxti bizni aslo tark etmasin! Kirib kelayotgan yangi yil barchamiz uchun baxtli, saodatli yil bo'lib, yangi orzular hayotimizga quvonch va yangi muvaffaqiyatlar olib kelsin! Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

**Shuhrat TOXTASIMOV,**  
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori


## BOSH QOMUSIMIZ 29 YOSHDA

Akademiyamizda 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan Ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" va "Xoreografiya" kafedralari hamkorligida "Konstitutsiya — hayotimiz tayanchi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Uni akademiya rektori Shuhrat Toxtasimov ochdi va ishtirokchilarni Konstitutsiyamizning 29 yilligi bilan tabrikledi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori Normurod Mamatov Bosh Qomusimizning jamiyat hayotidagi ahamiyati, uning mazmun-mohiyati haqida ma'ruza o'qidi. Tadbir davomida akademiya talabalari ijrosidagi raqslar bayram tadbiriga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Shuningdek, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasidan e'lon qilingan "Konstitutsiya — hayotimiz tayanchi" mavzusidagi maqolalarni tanlovi g'oliblari taqdirlandilar. Qolaversa, tadbir doirasida "O'qituvchi" nashriyoti bilan hamkorlikda kitoblar yarmarkasi tashkil etildi.

**O'zDXA**  
matbuot xizmati



Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Bahor" raqs ansamblining qayta tiklanishi milliy san'atimiz rivojida ulkan voqealik bo'ldi. Mukarrama Turg'unboeva asos solgan "Bahor" davlat raqs ansambli 1957-yil tashkil topgan. Uning "Besh go'zal", "To'yona", "O'zbekiston qizlari", "Navro'z", "Mukarramaxonim o'ynasa", "Bahor nashidasi", "Erkalab", "O'zbekiston istiqloli", "Majnunol" kabi ommaviy va kompozitsiyali raqslari shuhrat qozongan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat akademik katta teatrida qayta tashkil etilgan Mukarrama Turg'unboeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansamblining katta konsert dasturi tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi.

Ajoyib raqs kechasida afsonaviy "Bahor" ansambli san'at ustalari tomonidan yaratilgan betakror repertuarlar hamda Mukarrama Turg'unboeva davri ijodiy uslubi ruhiyatiga mos keluvchi yangi raqs kompozitsiyalari barchaning e'tiborini tortdi.

Badiiy rahbar, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq artisti, ustoz san'atkor Ziyoda Madrahimova, rejissyor Asqar Xolmo'minov, musiqa rahbari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mahammadjon Shokirov va ansamblning ijodkorlari tomonidan tashkil etilgan ushbu dastur barchaga manzur bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

## yana qaytdi

— "Bahor" ansamblining qaytadan tiklanishidan uning bugungi tarkibida faoliyat olib borayotganlar, balki avval o'sha ansamblda ishlaganlar ham juda baxtli, — deydi akademiyamiz professori O'g'riy Muhammadova. — Sababi, Mukarrama Turg'unboevadek betakror raqqosa tashkil etgan "Bahor"ni tugatilganiga ancha kuyungandik. 2007-yilda ansambli davlatni byudjetidan chiqarilib yuborilganidan so'ng o'z-o'zini ta'minlashga to'g'ri keldi. Mablag' ishlab topalmaganidan keyin, shunday ansambli faoliyati tugatildi.

Prezidentimizning raqs san'ati rivojiga bo'lgan jiddiy e'tibori tufayli mazkur ansamblning qayta tiklanishi yuzasidan davlatimiz rahbarining "Milliy raqs san'atini yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra davlat raqs ansambli konsert-tomosha faoliyatini tegishli litsenziya olmasdan, shuningdek, O'zbekistonda konsert-tomosha tadbirlarini bir martalik ruxsatnoma olmasdan amalga oshirish huquqiga ega ekanligi esa yil voqeasi desak, xato qilmagan bo'lamiz.

**Muqaddas XUDAYBERDIYEVA,**  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
2-kurs talabasi

## MUKARRAMAXONIM IZDOSHLARI TAQDIRLANDI

Bashariyat tamaddunida zamondoshlari qalbidan barhayot yashaydigan va hamisha avlodlar ardoqida bo'ladigan buyuk insonlar barmoq bilan sanoqli. Jamiyat rivojida o'zining zalvorli hissasini qo'shgan, ne-ne mashaqqat dovonlarini oshib o'tgan siymolar xotirasi mangu qolajak. Ana shunday ulug' zotlardan biri, o'zbek raqs san'atining yetuk darg'asi, O'zbekiston xalq artisti Mukarrama Turg'unboeva boshlab bergan karvon hali hanuz o'z yo'lida sobit qadam bilan davom etmoqda. Ustozning qoldirgan boy madaniy merosi zaminimizda unib-o'sayotgan yosh iste'dod egalari uchun qadr tarozusida ahamiyat toshini bosishi tabiiy.

Mukarrama Turg'unboeva nomini boqiylikka muhrlash, ijodiy merosini targ'ib etish va yanada boyitish maqsadida Madaniyat vazirligi tomonidan har ikki yilda bir marotaba "Mukarrama Turg'unboeva nomidagi Respublika yosh ijrochilar" ko'rik-tanlovi an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinmoqda. Yildan yilga qamrov ko'lami kengayib, yoshlarning qiziqishini ortishiga sabab bo'layotgan ushbu ko'rik-tanlov vatanimizdagi yosh iqtidor egalarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishda hamda ularni munosib rag'batlantirishda ibrat va namuna bo'lib kelmoqda.

Respublikamizning turli go'shalaridan 500 nafarga yaqin yosh, iste'dodli nozmodlar orasidan 45 nafari joriy yilning 1-dekabr kuni Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida ushbu tanlovning taqdirlash marosimi uchun jam bo'ldilar. Unda so'zga chiqqan Madaniyat vazirining o'rinbosari Olimjon Mirzayev tanlovning barcha ishtirokchilariga ulkan muvaffaqiyat va zafarlar tiladi hamda Mukarrama Turg'unboeva hayoti va ijodiga oid videorolik namoyish etildi. Faol

qatnashchilar tashkilotchilarning faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar. So'ngra sovrindorlar tomoshabinlarning hayrati va tasannolariga sabab bo'lgan raqs namoyishlarini ijro etishdi.

Badiiy maydonni to'ldirgan keksa-yu yosh marosimning maxsus mehmonlari "O'zbekiston" va "Sabo" raqs ansamblilarining chiqishlarini o'zgacha ruh, ko'tarinki kayfiyatda tomosha qilishdi.

Ulkan bahs-munozaralar qurshovida qolgan hakamlar hay'ati uzoq mulohazalardan so'ng tanlov g'oliblarini e'lon qilishdi. Saralash

(davomi 2-betda)





(davomi. Boshi 1-betda)

bosqichi va yakuniy bosqich natijalariga ko'ra tanlovning uchinchi o'rinni Toshkent viloyati vakilasi Feruza Muhammadsharipova ("Larzon" raqsi) egallagan bo'lsa, faxrli ikkinchi o'rin akademiyamizning professional ta'lim (xoreografiya) yo'nalishi 2-kurs talabasi Nilufar Ahmadjonova ("Farg'ona" ruboiysi raqsi) ga nasib etdi, nihoyat tanlovning mutlaq g'olibi gullar shahri Namanganning sanami Maftuna Isfandiyyorova ("Nozanin" raqsi) bo'ldi.

## MUKARRAMAXONIM IZDOSHLARI TAQDIRLANDI

Nilufar AHMADJONOVA,

2-o'ring'olibasi,

Professional ta'lim (xoreografiya) yo'nalishi  
2-kurs talabasi:

Ko'rik-tanlov nizomiga muvofiq uchinchi o'rin sohibasiga 5mln 400 ming, ikkinchi o'rin sohibasiga 8 mln 100 ming, birinchi o'rin sohibasiga esa 10mln 800 ming miqdoridagi pul mukofotlari, diplom, statuetka va esdalik sovg'alari topshirildi. Tashkilotchilar tomonidan tanlovni tashkillashtirishda yaqindan ko'mak bergan hay'at a'zolari O'zbekiston xalq artistlari Ma'mura Ergasheva, Rushana Sultonova va Qodir Mo'minovlar ham alohida e'tirof etildi.

Qolaversa, hududiy boshqarma boshliqlari, qatnashchilarning baletmeystr va ustozlari ham vazirlik e'tiboridan chetda qolmadi. Olamga Mukarrama Turg'unboyeva,

Tamaraxonimdek fidoiy, iste'dodli insonlarni yetishtirib bergan O'zbekiston yana iqtidorlarni dunyoga keltirishiga katta ishonch bildiramiz

Jahongir NORMAMATOV,

"San'atshunoslik" ta'lim

yo'nalishi 1-kurs talabasi

— Bugun chinakam ma'noda ahamiyatli kun, mamlakatimizning barcha hududlaridan yig'ilgan tengdoshlarim bilan badiiy maydonda kuch sinashdik. Ancha muddatli puxta tayyorgarlikdan so'ng, men o'z raqsimni ijro etdim. Ishonasizmi, bugun tanlovda 2- o'rinni olgan bo'lsam ham xafa emasman, muhimi men yaqinlarimga va o'zimga nimaga qodir ekanligimni isbotladim, deb o'ylayman. Yurtimizda biz yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlardan, tashkillashtirilayotgan shu kabi tanlovlarda ishtirok etayotganimdan mamnunman. Barcha ishtirokchilarning kelgusida ishlariga omad va zafarlar tilab qolaman.

## "OVOZSIZ QO'SHIQ KUYLAYDIGAN QO'LLAR SOHIBASI" -

TAMARAXONIM UY MUZEYIDA  
BIR KUN

Poytaxtimizning so'lim ko'chalarining birida Tamaraxonim uy muzeyi faoliyat ko'rsatadi. U butun hayotini o'zbek xalq raqslarini o'rganish va ularni targ'ib etishga bag'ishladi. Muzey zallarini kezar ekanimiz, portretlar, afishalar, suratlarining katta ko'rgazmasi, zargarlik buyumlari, bir-biriga o'xshamaydigan go'zal liboslar o'zbek raqqosaning hayotiy qiyofasini yaratadi.

1994 yilda doimiy faoliyat ko'rsatib kelayotgan mazkur uy-muzey, Tamaraxonim liboslari ko'rgazmasi asosida tashkil qilingan. Unda Tamaraxonim hayotining so'nggi yillari yashab o'tgan xonalar interyerlari saqlab qolingani. Shuningdek uning ko'plab sahna liboslari, betakror suratlar to'plami, memuarlari mavjud. Muzey to'plamiga shu bilan bir qatorda tasviriy san'at namunalari, liboslari va ro'zg'or buyumlari ham kiritilgan. Muzeyning ko'rgazmalar zalida Tamaraxonimning sahna liboslari, o'zbek milliy liboslari namoyishlari o'tkazib kelinadi. Farg'onacha, buxorocha, xorazmcha, afg'oncha, turkmancha va shu kabi bir qancha liboslar jozibadorligi yorqinligi bilan ko'zni qamashtiradi.

Tamaraxonim urush boshlangan vaqtda o'z mablag'i bilan frontga yordam berishga harakat qilgan. "Tamaraxonim" ismi yozilgan tankni o'z

hisobidan frontga sovg'a qilganligini, maket va rasmlar orqali ma'lumotga ega bo'ldik. Shuningdek, ko'krak nishonlari, ordenlar, uni o'limdan asrab qolgan paranji, umri davomida yig'ilgan guvohnomalar bilan ham tanishdik.

Muzeyda uy jihozlari, liboslardan tashqari royal va turli musiqiy jihozlar ham mavjud. Devorlarda Tamaraxonimning bolaligidan boshlab to'vafot etguniga qadar bo'lgan jarayonni qamrab olgan suratlar joy olgan. Aslida mazkur muzeyni raqqosaning o'zi hayot davrida tashkil etadi. Ma'lumotlarga ko'ra, u 1986 -yilda barcha ko'ylaklarini katta zalga chiqaradi va doimiy ishlab turgan "Liboslar galereyasi"ni tashkil etgan. Tamaraxonimning 300 dan ortiq liboslari muzey rahbariyati va ma'muriyatining say'-harakatlari bilan bugungi kungacha asl holida saqlab kelinmoqda.

Ustoz san'atkorimiz nafaqat raqs sohasiga xizmat qildi, balki, 17 yil davomida deputat ham bo'lgan. Muzeyga nafaqat talabalar, balki osha davrda Tamaraxonim bilan ijod qilgan, yashagan tanigan insonlar ham tashrif buyurishar ekan.

Muzeyning asl holatida saqlanib kelishida o'z hissasini qo'shayotganlardan biri — uning nabirasi Alagezxonim Salaxova bo'ladi. U har yili buvisining tavvallud topgan kunida muzeyga kelib, uni xotirlab ketar ekan.

Darhaqiqat, Tamaraxonimga aytilgan "Ovozsiz qo'shiq kuylaydigan qo'llar sohibasi" ta'rifi juda mos keladi. Uning yuzlab raqs harakatlarini yodda saqlashini o'zi kamdan-kam uchraydigan qobiliyat edi.

Farangiz DAVRONOVA,

"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi

2-kurs talabasi




## XALQARO HAMKORLIK DAVOM ETADI

Tarix fani darsliklaridan barcha o'quvchilarga ma'lum bo'lgan dunyoning yetti mo'jizasidan biri Misr ehomlari ko'pchilikni diqqat e'tiborini doim o'ziga tortib keladi. Jumladan, meni ham dunyoda mashhur bo'lgan me'morlik obidasi, ulkan, katta mahorat bilan yaratilgan piramidalarni ko'rish bolalik orzularimdan biri bo'lgan.

Ilmiy rahbarim Hulkar Hamroyeva bilan joriy yilning 13-dekabr kuni Misr Arab Respublikasida O'zbekistonning Qohira shahridagi elchixonasi tomonidan tashkillashtirilgan ilmiy-amaliy konferensiyasi — "O'zbekiston — uchinchi renessansi" nomli to'plamining ingliz va arab tillaridagi tarjimasining taqdimotida qatnashish baxtiga muvaffaq bo'ldim. Mazkur konferensiya va taqdimotlar ikki davlat olimlarining hamkorligi va tashabbusi doirasida o'tkazildi. Samimiy va ijodiy muhitda o'tgan uchrashuvda yurtimizning ochiq va do'stona tashqi siyosati, Markaziy Osiyodagi qo'shni davlatlar bilan hamkorlik



aloqalari mustahkamlanib borayotgani, barcha sohalar, xususan ilm, fan, adabiyot, san'at, madaniyatni yanada rivojlantirish, ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganish va ularni jahon miqyosida targ'ib etish yo'lida olib borayotgan sa'y harakatlari, ajoyib loyihalari haqida suhbat olib borildi. Ikki davlat olimlari, yozuvchi va shoirlari ishtirokidagi ijodiy muloqotda



Bir yarim soatlik filmni tomosha qilish jarayonida o'zbek raqs maktablari bo'ylab qiziqarli sayohatga chiqasiz, raqqos va raqqosalar, malakali murabbiylar bilan qilingan suhbatlardan bahramand bo'lasiz. Eng e'tiborli jihatlaridan biri esa qadimda odamlar o'z raqslarini hayvonlarga, tabiat hodisalariga taqlid qilib raqsqa tushishganligi juda ajoyib tarzda ko'rsatib berilgan.

Bundan tashqari olov atrofida gi "Gulxan raqsi" ham juda ajoyib tarzda ijro etilgan. Asta-sekin o'zbek raqsini san'at darajasiga olib chiqishga katta hissa qo'shgan fidokor, ustoz san'atkor raqqos va raqqosalarning, doirachi, sozandalarning mehnatlari juda go'zal tarzda ketma-ketlikda ko'rsatib o'tilgan.

Filmda o'zbek raqs san'atining boshidan to buguni, jahon sahnasini zabt etgan mamlakatning mashhur siymolari: Tamaraxonim, Usta Olim Komilov, Muhiddin Qori Yoqubov, Mukarrama Turg'unboyeva, Isohor Oqilovlar haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, filmda zamonaviy uslubda suratga olingan o'n beshta raqs spektakli, shu jumladan o'zbek raqsining mumtoz raqsalaridan "Munajat", "Tanovar", "Larzon" ham namoyish etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston xalq artistlari



Gulnora Mavayeva, Ma'mura Ergasheva, Malika Ahmedova, Viloyat Oqilova, Qodir Mo'minov, Rushana Sultonova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlaridan Ziyoda Madrahimova, Feruza Solihova, Narziddin Shermatov, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Karima Uzoqova va san'atshunos Yelena Qori-Yoqubovalardan olingan intervyulari mazkur san'at haqida yana-da kengroq ma'lumot beradi.

Filmning yana bir diqqatni tortadigan sahnalaridan biri — Dilorom Madrahimova va Sherzod Kenjaboyevlarning go'zal va nafis raqs harakatlari har qanday insonni e'tiborini tortadi. Ular milliy raqsimizga zamonaviy harakatlarni qo'shgan holda ijro etgan raqsarlari tomoshabinlarga manzur bo'lmay qolmaydi. Aynan shu joyda liboslar haqida so'zlamalikni iloji yo'q. Ularning rangi olov singari tovlanib, jilovlanib, ham hashamdor, shu bilan bir qatorda harakatlanish uchun qulay uslubda tikilgani e'tiborini tortadi.

Bo'lajak san'atshunos sifatida bilamiz-ki, uch raqs maktablari o'ziga xos uch musiqiy ko'rinishga ham ega. Bulardan ayniqsa, Xorazm va Buxoro raqsarlari o'zining sho'x-shodon harakatlari bilan bir-

biridan ajralishi sir emas. Ana shu uch ko'rinishdagi raqs maktablarining ijrosini bir musiqa ostiga mohirona tarzda jamlanganini e'tirof etmay ilojimiz yo'q. Bunda baletmeystri mahoratiga tasannolar aytak arzidi.

Shu yilning 20 dekabrda akademiyamizda mazkur filmning rejissori Rustam Soliyev bilan davra suhbat bo'lib o'tdi. Ssenariy muallifi va rejissyor Ruslan Soliyevning so'zlariga ko'ra, bunday film yaratish g'oyasi ancha oldindan bo'lgan, zero o'zbek raqsarlari o'ziga xosligi, rang-barangligi bilan allaqachon dunyoni zabt etishga ulgurgan.

"To'qqiz oylik mashaqqatli mehnat, uyqusiz tunlar, xavotirlar, o'ylar, butun dunyo tomoshabinlarini qiziqtiradigan film suratga olish ishtiyoqi — mana shunday orzular doim bizga hamroh bo'ldi", — deydi Soliyev suratga olish jaaryoni haqida.

## O'ZBEK RAQSINING AFSONALARI

— MILLIY RAQS TARIXI HAQIDA YANGI,  
MUSIQIY-HUJJATLI FILM

Film ilmiy maqsadni ko'zlamaganiga qaramay, ijodiy guruh arxiv materiallari ustida uzoq va mashaqqatli ish olib bordi, qiziqarli tarixiy faktlarni to'pladi. Filmni suratga olish jarayoni haqida loyiha maslahatchisi

Yelena Kari-Yakubova ham buni ta'kidladi. Filmning suratga olish jarayonlari poytaxtda, Toshkent viloyatida, Xorazm, Buxoro, Samarqand, Qo'qon va Qoraqalpog'istonda bo'lib o'tgan. Loyihada 130 dan ortiq raqqosalar, 50 ga yaqin musiqachilar ishtirok etgan va suratga olishga 300 soat sarflangan ekan.

Film Silk Road Cannes festivalining "Best Dance Film" nominatsiyasi va Cannes World Film Festival festivalida — "Best Dance Film" va "Best Asian Film" nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, New York Movie Awards festivalida "Best Director Feature Film", Paris Cinema Awards festivalida "Best Feature Documentary", Barcelona International Film Festivalida "Best Dance Film" ba "Best Soundtrack" nominatsiyalari bo'yicha sovrindor bo'ldi.

## FILMDAN BA'ZI FAKTLAR

● 1925 yilda Muhiddin Qori-Yoqubovning rus kompozitori Sergey Raxmaninov bilan Parijdagi uchrashuvi. Raxmaninov Qori-Yoqubovning kuylashidan shu darajada ilhomlanganidan shunday degan ekan: "Afsuski, o'zbek operasining premyerasida ishtirok eta olmayman".

● Isadora Duncan Tamaraxonimning Parijdagi chiqishidan so'ng parda ortiga o'tib, uning bo'yni umurtqa suyaklarini sanashni va qo'llarini ko'rishni so'ragan. U normal tuzilishga ega bo'lca-da, qo'l panjalari va bo'yin bunaqa plastikaga qodirligiga ishona olmagan.

● Angliya qirolichasi Mariya Londondagi "Albert Xoll"da Usta Olim Komilovning doira chalishini ko'rib, uning panjasini nusxasini olgan va Londondagi muzeyga qo'yishni buyurgan.

Nozima PO'LATOVA,

"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi

2-kurs talabasi



raqsimizga katta e'tibor qaratilayotganligi, ana shu raqslar ustida ilmiy izlanishlar olib borilayotgani ularni juda qiziqtirib qo'ydi va hamkorlik aloqalarini o'rnatish istagida ekanliklarini bildirdilar.

Gulmira QURBONOVA,

"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi

4-kurs talabasi



# AFSONADAN “MODERN” GACHA

**Bugungi kun o'zbek san'ati haqida ko'p yozildi, gapirildi. Ortiqcha bilag'onlik qilish niyatida emasman. Shunchaki, ayrim mulohazalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.**

## KINO:

Har janrdagi filmlarni ekranga olib chiqdik: tarixiy, romantik, komediy... Milliardlab pul ajratildi, festivallarda yutuqlarga erishdik. Natijada ilgari lagandek bo'ldik. Baribir, tomoshabinlar siyrak. Xo'sh, mag'zi butun, umri uzoq kinolarning siri nimada? Jahon tajribasi misolida, birgalikda mulohaza qilsak.

## THE GREEN MILE

“Yashil maskan” filmi:

“Oskar” mukofoti sovrindori (2000 yil). Rejissyor: Frenk Darabont. Bosh qahramon — 1935 yillar Amerikasidagi qamoqxonaning o'limga hukm qilinganlar bo'limi nazortchilarining boshlig'i (Tom Hens jirosida). Ismi Pol... Film olinganiga yigirma yildan oshibdik, qadrini yo'qotmagan. Ushbu film, aksar kinolardagi kabi mayda mavzulardan asar ham yo'q. Qayta-qayta ko'rganing sari o'zing uchun yangi bir narsani kashf qilaverasan, kishi. Qanday qilib bu darajaga erishish mumkin?... Asar yaratishda, xususan kinoda bir qoida bor: voqelik qanday boshlangan bo'lsa, o'sha xolda tugashi kerak. Albatta, suniylikni chetga surib. Ayni filmda ham shu qoidaga amal qilingan. Ayrim kadrlarni keltiraman: “Bolalarning la'nati qotili!” degan ayb bilan qamalgan Jon Koffe (Michayel Klarke Dunkan jirosida), badani chandiqlarga to'la, birorta xat-hujjatda nomi yo'q, doim bitta yupun kiyimda yuradigan inson. Uni qotillikda ayblashganda, ikkala qizaloqqa yordam bermoqchiligi, ammo ulgurmagani bot-bot takrorlaydi. Bemorlarning dardini o'ziga olib, davolaydi. Hatto o'likni (sichqon) tiriltiradi. Odamlar ko'nglidan nima o'tkazaypti, nima bo'ladi, kishilarning uyida nima bor... barini sezib turadi. Voqealar rivoji davomida Jonning beaybligini bilgan qamoqxona boshlig'i Pol unga hamdard o'laroq qamoqxonadan qochirib

yubormoqchi bo'ladi. Jon Koffening javobi esa, umuman boshqacha: “Men o'lishni va hammasiga chek qo'yishni istayman. Men charchadim, boss. Yomg'irda qolgan chumchuqdek yolg'iz yo'llarda sargardonlikdan charchadim. Hech qachon juragimni yozib, dardlashadigan do'stim bo'lmaganidan charchadim. Qayerdan kelyapmiz, qayoqqa ketyapmiz, nima uchun?... Shafqatsiz va zolim odamlardan, har kuni eshitganim, his qilib turganim, dunyoning og'riqlaridan charchadim. Tushinyapsanmi?!...” Oqibat tuhmatga qolib, odamlar ko'zida shafqatsiz qotil sifatida o'lim topadi... Iso alayhissalomning hayotini eslatmayptimi?

Endigi filmlarga qisqaroq to'xtalib o'taman.

## BRAVEHEART

“Sheryurak” filmi (rejissyor Mel Gibson).

Mazkur kartina 1995 yil suratga olingan. “Oskar” mukofoti sovrindori. Bosh qahramon Uillim Uols rolida — Mel Gibson. Kinodan parcha ko'p keltirmayman. Film so'ngida Uillim Uolsning “...ozodli-ik!” deya hayqirishini eslashning o'zi kifoya. Bizdan farqli ravishda ijodkorlar Shotlandiya afsonasini sal kam farishta qilib ko'rsatmaydi, zamonaviy shinani yuqub itarib yubormaydi, qilich tegib ketmasligi uchun balet tushayotgandek harakat qilmaydi... Borini — bor, yo'g'ini — yo'q va buni hamma to'g'ri tushinadi.

Filmga ilm-fanning aralashuvi ham katta muvaffaqiyat olib keladi, menimcha.

## A BEAUTIFUL MIND

“Tafakkur o'yini” filmi o'ylaylik. Rejissyor: Ron Hovard. Bosh rolda: Rassel Krou. Film 1995 yilgi “Nobel” mukofoti sovrindori Jon Neshning hayoti haqida. Ilm-fanning o'rni qanday bunda? Matematik Nesh shizofreniya kasalligiga chalingan bo'ladi. Yomon tomoni bu kasallikdagi insonlar qaysi odam haqiqiy, qaysi biri sarob ekanligini ajrata olmaydi... Nesh nazariyasi xalqaro tijorat bitimlarida, mehnat ta'minoti va kasaba uyushmalarini munosabatlarida o'z aksini topdi.

## TEATR:

Kunora teatrga borib, spektakllarni ko'rib, qoyillatgan joyim yo'q. Shu sababdan sohadagi muammo va yechimlarni gapirmoqchi emasman. Bir nechta spektakllarni takror ko'rib turaman, xolos. Va shunday mavzudagi spektakllar ko'paysa deymen.

Erkin Xushvaqto'v asari asosida olingan “Qirmizi olma” spektakli. Sahnalashtiruvchi rejissyor Munavvara Abdullayeva. Juda samimiy va sodda sahna asari. Aytgancha, eng murakkab va qiyin ish ham soddalikda bo'ladi, aslan. Nega? Deylik siz asar yozdingiz. U “Nobel” mukofotini olsa, olim, arboblarni e'tirof qilsa-yu to'rt-besh kishidan boshqa hech kim tushinmasa... Yozganingiz soddaligidan har qanday odamning ich-ichiga “singib” ketisa, keng afkor ommaning qizg'in muhokamasiga, yangicha yondashuvga, odmi lekin olamshumul g'oyalarga sabab bo'lsa, shuning o'zi ulkan unvon emasmi. “Qirmizi olma” spektaklida dramaturgning ishini e'tirof etmaslikning iloji yo'q. Kichik bir rivoyatni zamonaviy hayotga moslashtirib, etikayu estetikaning “tarozini” teng ushlab yozish... Shuncha gapni aytdim, rivoyatni aytmay ketmasam bo'lmas. Rivoyat: “Bir yigit tomorqasidagi ariqda yuzini yuvib tursa, qirmizi olma oqib kelayotganini ko'rib qoladi va bir tishlam tishlaydi. Shunda, olmaning egasidan iznsiz tishlagani yodiga tushib, roziligini olish maqsadida suv oqib kelayotgan tomonga qarab yuradi. Uzoq yurgan yigit bog'bonning oldiga kelib, bo'lgan voqeani tushintiradi. Bog'bon bog' uniki emasligi, egasining uyigacha bir kecha-kunduz yurish kerakligini aytadi va yo'lni ko'rsatadi. Yigit bog' egasini kimga yetib borgach, olmani halol etishini so'raydi va evaziga qanday vazifa bo'lsa bajarishini aytadi. Bog'ning egasi shart qo'yadi: ko'zi ko'r, qulog'i kar, oyog'i cho'loq, tili soqov bitta-yu bitta qiziga uylansagina luqmani halol etishini aytadi. Yigit shunda yeganim halol bo'larkan, deydi-yu uylanadi. Chimildiqda esa, kun desa ko'zi, oy desa og'zi bo'lgan bir qiz turadi. Yigit qaynotasining gapini aytganda, qiz: “Ko'zim ko'r”ligi — Qur'ondan boshqasini ko'rmaganim, “soqov”ligim — Allohning zikridan boshqasini so'zlamaganim,

oyog'im “cho'loq”ligi — Allohni rozi qilishdan boshqa yo'ldan yurmaganim, qulog'im “kar”ligi — azondan boshqasini eshitmaganimdir” deydi. Bu insonlarning farzandi esa — Imomi A'zam hazratlari hisoblanadi” Endi spektaklga qaytsam... Yo'q, yaxshisi o'zingiz ko'ring, shunisi qiziqroq.

## RAQS:

San'at asarlarida xalqning kelib chiqishi, yashash tarzi, muhiti hatto ob-havosini badiylashtirish ham katta muvaffaqiyat kaliti. Balki, shunday narsalarga e'tibor berilmay qo'ygani uchundir raqslar oldingiday darajaga chiqmay, raqqosalarimiz bir “o'yinchi” sifatida qolib ketayotgandir. Shunday raqslardan bir nechta misol keltirsam. Barchamiz qaltirab raqsqa tushadigan “Lazgi” raqsi. Ushbu raqs yaratilish tarixi haqida bir nechta taxminlar bor. Birinchisi: qadimda Xorazm o'lkasida juda sovuq mintqa bo'lgan va o'n oy davomida qish fasli hukm surgan. Shunda odamlar qaltiroq qo'l-oyoqlari bilan o'tirib-turib, sakrab turli harakatlarni bajaradi va shu asnoda raqs yaratiladi. Ikkinchi ma'lumot, rivoyat: insonga burnidan havo berib, jon kiritilganda dastlab, qo'llari titray boshlaydi va sekinlik bilan boshqa tana a'zolari ham qaltiraydi-da jon kiradi. Raqqoslar esa buni raqs orqali ifodalashga urinadi.

Navbatdagi raqsni “Lazgi” bilan yonma-yon qo'yish biron g'alati. Albatta tarixi, ahamiyati jihatidan bir-biriga teskari raqslar. Bu raqsqa Amerika qullari asos solgan. Qullar ko'llari kishanlangan holda jang qilishni o'rganadi va isyon qiladi. Aslida jang uslubi bo'lgan ushbu raqs — “Brek dans” deb ataladi.

Yuqoridagi misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Nafaqat san'at, balki davomiy adabiyat bilan ham. Frans Kafka, Chingiz Aytmatov, Asqad Muxtor, Muhammad Yusuf... Bularning barini ko'p o'qishadi, ko'radi, fikrlaydi. Deyarli barcha mavzu eskiradi. Men yuqorida eskirmaydigan mavzularni misol keltirdim. Bular: diniy ta'limot, afsona va rivoyatlar. Biroq asarga aynan shunday mavzularni asos qilib olinsa, u albatta muxlislar tomonidan e'tirof etiladi. To'g'ri, bunday asar yaratish uchun ancha ter to'kish kerak. Yillar, balki butun umr ketar. Nachora, tarix har kimning ham nomini o'zida siqlamaydi.

Bunyod ABDULLAYEV

“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi  
4-kurs talabasi

## LAZGI — MUHABBAT VA QALB RAQSI

Xabaringiz bor oltin kuzning muhim hodisalaridan biri — 5-sentabr kuni Alisher Navoiy nomidagi akademik katta teatrida “Lazgi” baletining premyerasi bo'lib o'tdi. 3000 yillik tarixga ega ushbu raqs 2019-yilda YUNESKO — jahonning nomoddiy-madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi.

O'dri Azule sahnalashtirgan mazkur baletni Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasiga havola etdi. O'zbek milliy raqsi bo'lgan “Lazgi” qadim-qadimdan

rivojlanish vaziri Hessa Bint Essa Buxumaid tashrif buyurdilar.

— Yurtimiz madaniyati xorijda qanchalik iliq, hayajon bilan qabul qilinayotganini ko'rib ruhlanib ketaman, — dedi Mass-media fondi Vasiylik Kengashi fondi raisi o'rinbosari Saida Mirziyoyeva muvaffaqiyatli taqdimotdan so'ng. — Biz jahon jamoatchiligiga eng asl durdonalarimizni taqdim etar ekanmiz, ular butun dunyoning mulkiga aylandi. Baletning xalqaro gastrollari boshlanmoqda.

Birinchi bekat -Dubai Opera Uning zafarli yurish qilishiga ishonchim komil. Shubhasiz, bu mamlakatimiz san'atining salohiyatini kengaytirish, boy madaniyatini namoyon etish va O'zbekiston imijini yanada yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi.

Darhaqiqat, “Lazgi — qalb va muhabbat raqsi” baletining sahnalashtirilishi O'zbekiston



milliy qadriyatlarimizning bir bo'laki hisoblanadi. Baletning sahnalashtirilishi esa “Lazgi” raqsiga bo'lgan qiziqishni tobora yuqori darajaga olib chiqmoqda.

Dunyo sahnalarida o'z jozibasini ko'rsatish uchun ijodiy guruh ilk qadamini Sharq mamlakatlaridan boshladi: joriy yilning 24-noyabr kuni Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) Madaniyat vazirligining hamda Mass-media fondi Vasiylik Kengashi fondi raisi o'rinbosari Saida Mirziyoyevalarning hamkorligida Dubay shahriga jo'nab ketishdi. U yerda o'zbek milliy san'ati, bilan bir qatorda o'zbek milliy zamonaviy (modern) baletining yorqin namunasi 27-noyabr kuni “Dubai Opera” sahnasida “Lazgi — qalb va muhabbat raqsi” baletining xalqaro premyerasi (namoyishi) bo'lib o'tdi. Unda BAA Federal milliy kengashi spikeri Sakr Bin Gubash Said Gubash, Dubay hukumati Mediaofisi Bosh direktori Mona Ganem Al Marri, BAA Ijtimoiy



baletini yangi bosqichga olib chiqdi va ilk bor dunyo bo'ylab sayohatini boshladi. Birinchi marta O'zbekistonning eng mashhur raqsaridan biri, madaniy meros va tarixi “Dubai Opera” ko'p formatli san'at markazi sahnasida namoyish etildi. Keying bekat esa — Moskva!

Zoir O'ROQOV,

“San'atshunoslik” ta'lim yo'nalishi  
2-kurs talabasi

## НАШ МУЗЕЙ – НАША ГОРДОСТЬ

В каждой статье писатель освещает нечто чудесное в наше время. Это большие или маленькие достижения, но они имеют огромную роль в нашей жизни. Искусство - это подарок от души, которое хочет вырваться наружу. И в этой сфере я бы хотела обратить внимание на наш коллективный поход в “Дом музея Юнуса Раджаби”, который заинтересовал своим названием многих Любителей искусства.

По виду это не просто дом, а целое сокровище из биографии и творчества великого узбекского народного артиста Юнуса Раджаби. Внутри музея нас с уважением встретили хозяйка музея Хасан Раджабий и его жена. Они с удовольствием показывали и рассказывали по очереди информации в этом дом-музее. Первая комната была самого Юнуса Раджаби. Было видно, что этот прекрасный человек любил своё дело и аккуратно относился к нему. Комната была уютной и было там много книг, магнитофон и особенно можно было обратить внимание на столик, где располагались ноты, чернила великого создателя музыки. Дом был полон разных фотографий семьи Раджабий. В глазах этих людей были яркими и горели огоньками счастья. В музее было много инструментов показывающие. Кем они были созданы и достижения которые включали в себя труды семьи Раджаби.

Можно было восхищаться и брать примеры из этой семьи. Все рассказы Хасана Раджаби слышались как чудное сказочное произведение. Атмосфера в Музее было уютным и даже домашнем. Было спокойно, играла лёгкая классическая музыка и был национальный узбекский аромат.

Особенно меня впечатлил любовь детей к своему отцу. Хасан Раджабий в честь своего отца 10 лет трудился над этим музеем. Он из кусочков создавал этот музей. У него была цель, над которым восхищаются все в наше время. Он создал свою долгожданную книгу “Раджабийнома” в котором включали все события этой восхитительной семьи. Записи отца, которого мы слушали давали тонкое чувство, что отец с нами, в наших сердцах навечно!

Хасан Раджабий с уважением к труду своего отца сыграл в национальном инструменте в честь него. Слушали и восхищались. Это было рай для ушей.

И в конце мы с теплой улыбкой попрощались. Впечатления были для меня чудесными, даже захотелось написать про это статью и поделиться этим чудесным днём в словах для наших родных и близких.

Диёра АБДУЖАЛИЛОВА,

студентка 1-курса направление  
«Искусствоведение»





# DUNYO MAMLAKATLARI YANGI YILNI QANDAY NISHONLASHADI?

Turli qit'alarda yashovchi insonlar qanday an'analarga rioya qilishadi? Qaysi davlatlarda qishda yangi yil kelmaydi? Ushbu maqolada biz millionlab insonlarning sevimli bayrami haqidagi eng yorqin faktlarni to'pladik.



## FINLYANDIYA

Yangi yil arafasida finlar fol ochish uchun mumdan foydalanadilar. Bayram dasturxoniga ko'plab taom va ichimliklar qo'yishadi. Shimolliklar eng sevib iste'mol qiladigan taomlar – shirin guruch pyuresi va olxo'ri jelesi. Finlyandiya qorbobo "Joulupukki" deb ataladi. Bu ism "rojdestvo echkisi" deb tarjima qilingan. Shuning uchun Qorbobo echkilar tomonidan tortilgan aravani haydash uchun chaqiriladi. Joulupuki shu arava yordamida barcha kattalaru bolalarni orzu istaklarini amalga oshiradi.



## SHVETSIIYA

Yangi yil arafasida shved bolalari yorug'lik qirolichasi Lyusiyaning saylab olishadi. Ushbu lavozimga tayinlangan qiz oq ko'ylak va yonib turgan shamlar o'rnatilgan toj kiyadi. Lyusiya uy hayvonlariga shirinlik ulashadi va bolalarga sovg'alar ulashadi. Rango-rang chiroqlar bayrami ko'chalarda, shuningdek, uylarda nishonlanadi.



## VENGRIYA

Yangi yil kelishining hal qiluvchi pallasida Vengriya aholisi axlat qutilaridan shoxlar, quvurlar, hushtaklarni chiqarib, bor kuchlari bilan hushtak chalishadi. Shunday qilib, ular uyni yovuz ruhlardan tozalaydilar va farovonlik va quvonch uchun joy bo'shatadilar. Vengrlarning Yangi yil taomlari no'xat, loviya, yong'och, olma, asal va sarimsog'dan iborat.



## FRANSIYA

31 dekabr arafasida fransuzlar uyni yog'och va loydan yasalgan haykallardan bezashadi. Fransiyada qorboboni "Per Noel" deb atashadi. U bolalarning bayram paypoqlariga sovg'alar solib qo'yadi. Bayram qiroli bolgan bolakaylar tunda paypoqlaridan o'z sovg'asini oladi va bayram torti bilan Yangi yilni kutib oladilar.



## ISPANIYA

Har bir ispaniyalik mahalliy aholi yangi yil kechasi o'nlab uzum turlarini iste'mol qiladi. Bu marosim kelgusi yil uchun omad keltiradi, deb hisoblaydilar. Ispaniya do'konlarida hatto urug'siz va po'stsiz uzum idishlarda sotiladi. Italuyadagi Yana bir qiziq fakt: yangi yilni qizil kiyimda kutib olish kerak, shunda keyingi 12 oy davomida siz moddiy muammolarga duch kelmaydiz. Bu an'ana erkaklarga ham, ayollarga ham tegishli.



## ITALIYA

Ko'pchilik ma'lumki, italiyaliklar Yangi yil arafasida o'rta asr an'analarga ko'ra, eski narsalarni derazadan tashqariga uloqtirib tashlashadi. Bu odat yirik shaharlarda kuzatilmaydi. U asosan qishloqlarda an'ana sifatida bajariladi. Santa Klausning o'rniga mamlakatdagi sovg'alarni supurgi ustida uchib yurgan "Befana Pari" tarqatadi. Biroq, Italiyada qorbobo ham bor. Uning ismi "Babbo Natale". Bayramda Apennin orollari aholisi salomatlik, farovonlik va uzoq umr ramzi bo'lgan yasmiq, yong'och va uzumni iste'mol qiladi.



## JANUBIY AFRIKA

Italiyada bo'lgani kabi, Janubiy Afrikaliklar ham eski buyumlarni derazadan tashqariga uloqtirib tashlaydilar. To'g'ri, so'nggi yillarda davlat xavfsizlik nuqtai nazaridan bu an'anani taqiqlashga harakat qilishyapti.



## NEPAL

Nepalliklar buyumlarni tashlamaydilar, balki ularni darhol Yangi yil gulxanlari olovida yoqib yuborishadi. Tong otishi bilan Nepal aholisi o'zlarini naqshlar bilan bezashadi va ranglar bayramini nishonlashadi.



## YAPONIYA

Kunchiqar mamlakatda Yangi yilda o'zlarini kasalliklardan himoya qilish va omadli bo'lish uchun yangi kiyimlarda nishonlashadi. Archaning o'rniga motibana daraxtini bezatishadi. Yangi yil arafasida har bir yaponiyalik yaxshilanish va salbiy narsadan xalos bo'lish uchun 108 ta qo'ng'iroqni eshitishni orzu qiladi.



## BIRMA


Birmaliklar Yangi yilni bahorning o'rtalarida — uch kun nishonlashadi. Xudolarni tinchlantirish uchun esa arqon tortish musobaqasini o'tkazadilar.



## ISROIL

Isroilliklar uchun Yangi yil sentyabroyida keladi. Bayram oldidan anor, asal, olma, baliq yeb, duo qilishadi. Ibodatlarini suv havzalari yonida qilishadi.

Kelayotgan yil siz uchun omadli kelsin. Bayram muborak bo'lsin!



Internet manbalari asosida  
"San'atshunoslik"  
ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi  
Diyora ABDURASHIDOVA  
tayyorladi

# Millat qomusi

Har zamin erkiga ko'zgu bo'lgusi,  
Millat hurligining bu tamaltoshi.  
Moziyning qa'ridan sado bergusi,  
Huquqin bayoni keksa-yu yoshni.

Yashamoq ne asli, nedir hukumat,  
Nomusin toptashga bormi huquqi?  
Na gadoga afv bor, na bekka shafqat  
Haqiqat yoy erur, tenglikdir o'qi.

Haq yo'lni ko'rsatar, oliy maqomi,  
Asosdir amr-u, fatvo, farmonga  
Ta'lim, siyosatning tandagi qoni,  
U bor, dilda joy yo'q sitam, armonga.

Dinida emin-u, tilda erkin xalq,  
Taraqqiy yo'lida qadami shahdam,  
Tinchlik uraversin manglayida barq,  
Istiqlolga borsin dadil-u bardam

Jahongir NORMAMATOV,  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
1-kurs talabasi

# Qadri baland VATANIM

Yo'llarimga shamchiroq bo'lgan,  
Qalbinga yog'du bo'lgan,  
Ruhim hamroh bo'lgan,  
Qadri baland Vatanim.  
Ulug'lik yo'lida poydevorim,  
O'zing ko'z yoshim,  
O'zing malhamim,  
O'zing quvonchim,  
O'zing tongimsan,  
O'zing tunimsan,  
O'zing qo'rg'onim,  
Istiqlol yo'lida,  
Posboni borim.  
Sharq ko'ksida,  
Yongan tumorim...  
Islom olamida,  
Ulug'san o'zing.  
O'zligini tanitgan,  
Oliy maqomim Vatan.

Sevara NURMATOVA,  
"San'atshunoslik" ta'lim yo'nalishi  
3-kurs talabasi

## RAQS OLAMI



### MUASSIS:

O'zbekiston davlat  
xoreografiya  
akademiyasi

### TAHRIR HAY'ATI:

Mirmuhsin G'OFUROV  
Jahongir G'ANIYEV  
Hulkar HAMROYEVA  
Matluba MURODOVA  
Dildora QOSIMOVA  
Po'lat TOSHKENBOYEV  
Venera ABLIYAYEVA

### BOSH MUHARRIR:

Shuhrat TOXTASIMOV

### Bizning manzil:

100031, Toshkent shahri,  
Yakkasaroy tumani,  
Yusuf Xos Hojib ko'chasi,  
103-uy.

NASHR UCHUN MAS'UL  
To'maris A'ZAM

Gazeta 2018-yil 4-dekabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 1002-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Nashr indeksi: 145  
Ofset usulida bosildi.  
Qog'oz bichimi A-3

Bosishga topshirish vaqti:  
18:00  
Bosishga topshirildi: 21:25  
Adadi: 200  
Bahosi kelishilgan narxda.

Sahifalovchi:  
Dilmurod DO'STBEKOV

Gazeta tahririyat kompyuterida  
terildi va sahifalandi.

"NISO-POLIGRAF"  
MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq  
tumani, "Oq ota" MFY, Mash'al qo'rg'oni,  
Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Buyurtma: 18  
Hajmi 1 bosma taboq.